**“KELISHILDI”**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VAZIRI
O‘RINBOSARI

______________ **SH.A. JAXONGIROV**
«______»__________2022 y.

**“TASDIQLAYMAN”**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TURIZM VA MADANIY MEROS VAZIRI
O‘RINBOSARI

______________**B. SHAXRIYOROV**
«______»__________2022 y.

**“KELISHILDI”**

NAVOIY VILOYATI
QURILISH BOSH BOSHQARMASI
BOSHLIG‘I

______________**A. NIYOZOV**
«______»__________2022 y.

**“KELISHILDI”**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TURIZM VA MADANIY MEROS
VAZIRLIGI HUZURIDAGI
“BINOLARDAN FOYDALANISH VA
QURILISH -TA’MIRLASH ISHLARI
DIREKSIYASI” DUK DIREKTORI

______________**SH. KILICHEV**
«______»__________2022 y.

# Navoiy viloyati, Qiziltepa tumani, “Iftixor”MFY, Tudako‘l suv havzasi turizm hududi master reja loyihasini ishlab chiqish TOPSHIRIG‘I

**Toshkent -2022 y.**

## LOYIHA TOPSHIRIG'I

| | | |
|---|---|---|
| 1 | *Loyihalashtirilayotgan obektning nomlanishi* | Navoiy viloyati, Qizil tepa tumani, "Iftixor"MFY, Tudako'l suv havzasi turizm hududi master reja loyihasini ishlab chiqish |
| 2 | *Loyiha ishlab chiqish uchun asos* | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 27 yanvardagi PQ-104-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2022 yil 10 martdagi 110-sonli qarori. |
| 3 | *Moliyalashtirish manbai* | Respublika budjetidan mahalliy budjetlarga ajratilgan ssuda mablag'lari, tadbirkorlarning o'z mablag'lari, bank kreditlari hisobidan. |
| 4 | *Loyihalashtirish obekting asosiy tavsifi, shu jumladan* | 4.1. Turizm hududi joylashgan manzili:<br>***Qizil tepa tumani, "Iftixor"MFY, To'dako'l qirg'og'i***<br>4.2 Turizm hududi maydoni-***90ga.***<br>4.3. Turizm hududi joylashgan MFY nomi va uning aholisi soni:<br>***-" Iftixor" MFY, aholi soni -1682 nafar.***<br>4.4. Turizm hududi joylashgan MFYga tutash MFYlar nomi va ularning aholisi:<br>***-"Konsurun" MFY aholi soni 2650 nafar, "Gulbog'" MFY aholi soni 2955 nafar, "Varozun" MFY aholi soni 4106 nafar, "Demas" MFY aholi soni 2973 nafar.*** |
| 5 | *Loyihani amalga oshirishning hisobiy muddatlari* | Loyihaning amalga oshirishni boshlanish davri – aniq emas. |
| 6 | *Loyiha materiallarini ishlab chiqish va muvofiqlashtirish jarayonida qatnashuvchilarning tarkibi va ularning o'zaro majburiyati.* | 6.1 Loyiha hujjatlari tarkibi O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirining 22.06.2018 yildagi 68-sonli qarori bilan ShNQ 1.03.02.-04* ga kiritilgan qo'shimcha va o'zgartirishlarga asosan ishlab chiqiladi.<br>6.2. Ishlab chiqish muddati va ajratilgan moliyaviy mablag'ni o'zlashtirish shartnomaning kalendar rejasi (календарный план) asosida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.<br>6.3. Loyihaning dastlabki eskiz loyihasi va asosiy texnik iqtisodiy ko'rsatkichlari shartnomaning kalendar grafigida belgilangan muddatda buyurtmachi, tegishli idora va tashkilotlar ishtrokida tuman va viloyat hokimliklari bilan kelishiladi.<br>6.4. *Master reja loyihasi qo'yidagi tarkibda ishlab chiqilishi ta'minlanadi:* |

| | | |
|---|---|---|
| | | -Turizm hududini kompleks baholash va rivojlanishidagi cheklanishlari;<br>- Turizm hududida mavjud funksional zonalarning tahlili ;<br>- Turizm hududini tabiat-iqlim sharoitlarni tahlil qilish;<br>- Turizm hududini tarixiy-madaniy portensialini tahlil qilish (tarixiy ahamiyatli obyekt va boshqalar);<br>-Turizm hududida mavjud va tarixiy qurilishlar tiplari;<br>- Turizm hududi rivojlanish cheklovlarini tahlil qilish (sanitar zona, tabbiy qo'riqlanadigan hudud);<br>- Turizm hududidagi mavjud tijorat infratuzilmalar tahlili;<br>-Transport infrastrukturasi tahlili (ko'cha -yullar tarmog'i, jamoat transporti);<br>*Turizm hududini rivojlantirishni arxitektura-rejalashtirish yechimlari:*<br>- Turizm hududini rivojlantirish konsepsiyasini shakillantirish (asosiy vazifalar, qurilish tiplari va rejalashtish yechimlarining asosiy xarakteristikalari)<br>-turizm hududini me'moriy – rejaviy va funksional tashkillashtirish;<br>-Hududni funksional zonalar sxemasini ishlab chiqish;<br>- Loyihani amalga oshirish bosqichini aniqlash;<br>-Hududni transport xizmati bo'yicha kotseptual yechimlarini ishlab chiqish;<br>- Jamoat joylarining knseptual yechimlarini ishlab chiqish<br>- Turizm hududining zarur infratuzilma bilan ta'minlanilishi<br>-hududni obodonlashtirish va ko'kalamlashtirish konseptual yechimlarini ishlab chiqish;<br>-Bino va inshooatlarning arxitekturaviy -reja yechimlari konseptual yechimlarini ishlab chiqish;<br>-Dizayn -kod konseptul yechimlarni ishlab chiqish;<br>-Ko'rgazmali (prezentatsion) materiallarni tayyorlash muhandislik ishlari bo'yicha tayyorlash va muhandislik uskunalash;<br>-atrof muhitni muhofaza qilish va yaxshilash;<br>-tabiat, tarixiy va madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish;<br>-fuqarolik himoyasi bo'yicha texnik-muhandislik tadbirlar (buyurtmachining alohida buyurtmasiga ko'ra bajariladi);<br>-3D tizimidagi illustrativ materiallarni ishlab chiqish. |
| 7 | *Boshlang'ich ma'lumotlar ro'yxati. Buyurtmachi tomonidan ShNQ 1.03.02-04*,6-bandiga ko'ra, loyihachi tashkilotiga loyiha ishlari boshlanishiga qadar taqdim etilishi* | a) 1:500; 1:1000 nisbatdagi topografik materiallar (2022 y);<br>b) 1:10000 nisbatdagi tumanning xaritasi;<br>v) 1:2000 nisbatdagi muhandislik-gelogiya tadqiqotlar (2022 y);<br>g) master rejani ishlab chiqilishi boshlanayotgan vaqtdagi boshlang'ich ma'lumotlar:<br>- mahallalar chegarasi va aholining mavjud joylashuvi; |

| | | |
|---|---|---|
| | *kerak bo'lgan birlamchi ma'lumotlar ro'yhati.* | - Mahalla fuqarolar yig'ini va atrofida joylashgan qishloqlarning pasportlari asosiy statistik kursatkichlari.<br>- qavatliligi va mansubligi bo'yicha turar-joy fondi;<br>- aholiga madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish tarmoqlarining joriy holati to'g'risidagi ma'lumotlar;<br>- muhandislik uskunalari bilan ta'minlanganlik asosiy ko'rsatkichlari;<br>- hududni muhandislik ishlari bo'yicha tayyorlash yuzasidan ma'lumotlar;<br>- hududda mavjud boshqa tashkilotlar, aholining yosh bo'yicha tuzilishi, aholining tabiiy va mexanik o'sish sur'ati, erkin mehnat zaxiralarining mavjudligi bo'yicha ma'lumotlar;<br>- umumiy foydalanuvdagi ko'kalamzorlar;<br>- sport inshootlari va dam olish muassasalari;<br>- tabiiy muhitning (tuproq, suv, havo) joriy holati;<br>- temir yo'l transporti;<br>- avtomobil transporti, uning yo'llardagi intinsivliligi;<br>- yerdan foydalanuvchilar qismida mahalla fuqarolar yig'iniga tutash mahallalar, aholisining soni va turar-joy fondi, transport infratuzilmasi va muhandislik kommunikatsiyalari.<br>d) buyurtmachi tomonidan ish jarayonida yig'ilishi zarur bo'lgan boshqa tegishli boshlang'ich ma'lumotlar. |
| 8 | *Loyiha qiymatini aniqlashda aholi punktining o'ziga xos xususiyatlari va muammolari (hududning tabiiy sharoiti, geologiyasi va xakozo) inobatga olinib, yo'riqnomaga ko'ra qo'llanilgan ko'rsatkichlar.* | 8.1. Loyiha ishlari qiymati (smeta) O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi (Davlat arxitektura va qurilish qomitasi)ning 2011 yil 4 apreldagi 16-sonli qarori bilan tasdiqlangan "*Методические рекомендации по определению стоимости разработки градостроительной документации по планированию развития территории и частей территорий Республики Узбекистан и норм времени при расчете стоимости в текущих ценах при разработке градостроительной документации*" yo'riqnomasiga asosan hisoblangan.<br>8.2. Mazkur yo'riqnomada keltirilgan quyidagi ko'rsatkichlar bosh reja loyihasini qiymatini belgilashda qo'llanilgan:<br>a) loyiha qiymatini oshiruvchi ko'rsatkichlar (Yo'riqnomaning 2-bo'lim 18-bet 2,3,5-ko'rsatkich qiymatlari);<br>*- hudud tuprog'ining cho'kuvchanligi – $K_1$-1,2;*<br>*- hududning seysmik ko'rsatkichi – $K_2$-1,1;*<br>*- hududning qayta rekonstruksiya qilinadigan qismi – $K_3$-1,3;*<br>*b)* ishlab chiqilmasligi sababli "Yo'riqnoma" ga ko'ra loyiha qiymatini pasaytiruvchi ko'rsatkichlar *– (K -0,86)*<br>*v) (AMTB) Atrof-muhitga zararli ta'sirni baholash" qismi loyihasi qiymati "Yo'riqnoma" ning II-bo'limi "Asosiy holat" (Основных положений), oxirgi xatboshiga ko'ra xisoblanadi.*<br>8.3. Loyiha xujjatlarini shakllantirish: |

| | | |
|---|---|---|
| | | - Loyiha chizmalari, ko'rgazmaviy materiallar(slayd, planshet)ning sxemalari, reja- jadvallari va "Loyihaning asosiy ko'rsatkichlari aks ettirilgan qisqa tushuntirish xati" davlat tilida;<br>- "Loyihaning umumiy tushuntirish xati" (*tushuntirish xati kitoblori*) davlat tilida (rus tilida).<br>8.4. Loyihalash davrida buyurtmachi hokimiyati organlari tomonidan loyihalanayotgan hududda ajratilayotgan barcha yer maydonlari haqida loyihachiga ma'lumot berishi shart.<br>8.5. Loyiha hujjatlarining yozma (*tushuntirish xati kitoblori*) va grafik materiallari 3 nusxada chop etiladi:<br>*1-son nusxasi – loyiha tashkilotining maxsus bo'limiga va 2 va 3 – son nusxalari – buyurtmachiga topshiriladi.*<br>Elektron usulda 2 nusxa loyiha hujjatlari tayyorlanadi:<br>1-nusxasi – *loyiha tashkilotining maxsus bo'limiga,*<br>2-nus'hasi - *buyurtmachiga topshiriladi.*<br>8.6. Loyiha hujjatlari yetkazib berish:<br>- o'rnatilgan tartibda loyiha buyurtmachiga yetkaziladi: |
| 9 | *Buyurtmachg tomonidan Loyiha tashkilotiga ko'rsatiladigan qo'shimcha yordam turlari.* | 9.1. Loyiha hujjatlarini joylardagi mutassadi idora va tashkilotlar bilan kelishish jarayonida.<br>9.3. Loyiha xujjatlarini hududiy arxitektura- shaharsozlik kengashida ko'rib chiqilishi jarayonida.<br>9.2. Loyiha hujjatlarini davlat va ekologiya ekspertizalarga taqdim qilish xamda ximoya qilish jarayonlarida.<br>9.4. Loyiha hujjatlarini hududiy arxitektura-shaharsozlik kengashiga kelishish uchun taqdim qilish jarayonida.<br>9.5. Loyiha hujjatini tasdiqlash to'g'risidagi Navoiy viloyati Kengashi qaror loyihasini tayyorlash jarayonida. |
| 10 | *Loyiha xujjatlarini ishlab chiqish muddati.* | 10.1. Loyihalash muddati shartnomaning reja grafigi (kalendarnыy plan) asosida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.<br>10.2. Loyihachi buyurtmachi tomonidan shartnomaning 7-bandi bilan belgilangan vazifalarni o'z vaqtida yoki to'liq bajarmagan taqdirda mazkur shartnomaning reja grafigiga (kalandarnыy plan) o'zgartirish kiritish xuquqiga ega.<br>*Izoh: Shartnomaning reja grafigi o'zgargan taqdirda belgilangan tartibda qo'shimcha shartnoma tuziladi va o'rnatigan tartibda imzolanadi.* |
| 11 | *Loyiha xujjatlarini tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishish tartibi.* | 11.1. Loyiha hujjatlari amaldagi ShNQ 1.03.02-04* ning 105-109 va 121-141 bandlariga asosan kelishiladi va tasdiqlanadi. |

| | | |
|---|---|---|
| 12 | *Loyihalarni muvofiqlashtirish va ekspertizadan o'tkazish tartibi.* | 12.1. Loyiha xujjatlarini ShNQ 1.03.02-04* talablariga ko'ra, shaharsozlik xujjatlarini ekspertizadan o'tkazish tartibiga ko'ra amalga oshiriladi.<br>12.2. Loyiha xujjatlarini davlat va ekologiya ekspertizalariga topshirish, moliyalashtirish va tegishli xulosalarni olish buyurtmachi vakolatiga kiradi. |

**Loyiha topshirig'i** "Binolardan foydalanish va qurilish- ta'mirlash ishlari direksiyasi" DUK tomonidan ishlab chiqildi.
Loyiha topshirig'iga loyihalash jarayonida ma'qullangan takliflar asosida o'zgartirishlar, qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

Turistik zonalar va turistik klasterlarni rivojlantirish, master-rejalarni ishlab chiqish boshqarmasi — Shamuratov B.

Navoiy viloyati Turizm va madaniy meros bosh boshqarma boshlig'i — Mirzayev S.

**Buyurtmachi:**

"Binolardan foydalanish va qurilish-ta'mitrlash direksiyasi" DUK Bosh muxandisi — Muratqobilov D.

Birlamchi ruxsat beruvchi, loyiha va tanlov hujjatlari tayyorlash bo'limi boshlig'i — Haydarova Sh.